

BOSHLANG'ICH TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH - DAVR TALABI

Xudoyberganova Dildora Rahimboyevna

Rajapova Matluba Azimboyevna

Xorazm viloyati Gurlan tumani

31-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining

Boshlang'ich sinf o'qituvchilari

Annotatsiya: *Ushbu maqolada umumta'lim maktablari boshlang'ich sinf o'quvchilarini har tomonlama intellektual rivojlantirishning muhim masalalari, intellekt, tafakkur tushunchalarining uyg'un va mushtarakligi haqida ma'lumotlar yoritilgan. Kalit so'zlar: kompetensiya, dars, metodika, psixologiya, kompetensiyaviy yondashuv, ta'lim tizimi, ta'lim samaradorligi, yuksak salohiyat.*

O'zbekistonimiz jahonda hech bir sohada o'z tengdoshlaridan orqada qolmaydigan ulkan yutuqlarni zabt etadigan yuksak salohiyatli, iqtidorli va qobiliyatli yosh avlodni o'stirib yurtimizga yetkazib eng muhim masalasidir. Ta'limda kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta'lim standartining qabul qilingan davlatimiz tomonidan ta'lim tizimini takomillashtirishga bo'lgan e'tibor, qolaversa bu ulug' xalqimiz, kelajagimiz va ertangi kunimizga bo'lgan e'tiborning yaqqol namunasidir. Respublikamizning jahon mamlakatlari qatoridan munosib o'rin egallashi, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jihatdan taraqqiy etishi, xalqaro munosabatlarni tashkil etishda demokratik va insonparvarlik tamoillarining ustivor bo'lishiga erishishi qat'iy ma'naviy-ahloqiy sifatlarga ega bo'lgan, kasbiy faoliyatida yutuqlarga erisha oladigan yangi kelajakning tayyorlanishiga bog'liq. Respublikamiz xalq ta'limi oldida turgan asosiy vazifa har tomonlama kamol topgan sog'lom, qobiliyatli, o'z Vatani va xalqiga sodiq insonlarni tarbiyalash va ularni voyaga yetkazishdan iboratdir. Bu ulug' maqsadni ro'yobga chiqarish xalq ta'limi tizimida faoliyat ko'rsatayotgan barcha o'qituvchilarning o'z ishiga ijodiy yondashish, har bir ishda yuksak samaradorlikka erishish zamonaviy pedagogik usullarni qo'llab darslarni samarali tashkil etishni talab qiladi. Qolaversa, boshlang'ich ta'lim yosh avlodga ta'lim-tarbiya berishning poydevori hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchisining kasbiy salohiyati va ma'lumot darajasi, uning bolalar psixologiyasi va ma'lumot darajasi hamda hozirgi zamon boshlang'ich ta'lim metodikasini yaxshi bilishi ta'lim sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. standarti va amaldagi maktab dasturlarida o'quvchi egallashi lozim bo'lgan materiallar ancha murakkab bo'lib, bolalarning bu bilimlarni bosqichma-bosqich egallab olishlarini, kengaytirib va rivojlantirib borishlarini taqozo etadi. Bugungi va ta'lim tizimi biz boshlabg'ich sinf o'qituvchilari oldiga o'ta mas'uliyatli vazifalar yuklamoqda. Muallim har bir o'tilayotgan darsga ijodiy yondashishi, mashg'ulotlarni ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida qurishi, darsning har bir minutidan unumli foydalanishi zarur.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 30 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasida yoshlar tarbiyasi to'g'risida: farzandlarimiz uchun zarur sharoitlar yaratish, yangi-yangi ta'lim-tarbiya, madaniyat, san'at va sport maskanlarini barpo etish, yosh oilalar uchun uy-joylar qurish, yoshlarni ish bilan ta'minlash, ularni tadbirkorlik sohasiga keng jalb etish bo'yicha boshlagan ishlarimizni yangi, yuksak bosqichga ko'taramiz. Biz ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz. Yosh avlod tarbiyasi haqida gapirganda, Abdurauf Fitrat bobomizning mana bu fikrlariga har birimiz, ayniqsa, endi hayotga kirib kelayotgan o'g'il-qizlarimiz amal qilishlarini men juda-juda istardim. Mana, ulug' ajdodimiz nima deb yozganlar:

"Xalqning aniq maqsad sari harakat qilishi, davlatmand bo'lishi, baxtli bo'lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo'lishi yoki zaif bo'lib xorlikka tushishi, baxtsizlik yukini tortishi, e'tibordan qolib, o'zgalarga tobe va qul, asir bo'lishi ularning o'z ota-onalaridan bolalikda olgan tarbiyalariga bog'liq". Qarang, qanday bebaho, oltinga teng so'zlar! Bugungi kunda yon-atrofigimizda diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, odam savdosi, noqonuniy migratsiya, "ommaviy madaniyat" degan turli baloqazolarning xavfi tobora kuchayib borayotganini hisobga oladigan bo'lsak, bu so'zlarning chuqur ma'nosi va ahamiyati yanada yaqqol ayon bo'ladi. Haqiqatan ham, hozirgi vaqtda yoshlar tarbiyasi biz uchun o'z dolzarbligi va ahamiyatini hech qachon yo'qotmaydigan masala bo'lib qolmoqda. Bugungi tez o'zgarayotgan dunyo insoniyat oldida, yoshlar oldida yangi-yangi, buyuk imkoniyatlar ochmoqda. Shu bilan birga, ularni ilgari ko'rilmagan turli yovuz xavf-xatarlarga ham duchor qilmoqda. G'arazli kuchlar sodda, g'o'r bolalarni o'z ota-onasiga, o'z yurtiga qarshi qayrab, ularning hayotiga, umriga zomin bo'lmoqda. Bunday keskin va tahlikali sharoitda biz ota-onalar, ustoz-murabbiylar, jamoatchilik, mahalla-ko'y bu masalada hushyorlik va ogohlikni yanada oshirishimiz kerak. Bolalarimizni birovlarining qo'lga berib qo'ymasdan, ularni o'zimiz tarbiyalashimiz lozim. Buning uchun yoshlarimiz bilan ko'proq gaplashish, ularning qalbiga quloq solish, dardini bilish, muammolarini yechish uchun amaliy ko'mak berishimiz kerak. Bu borada uyushmagan yoshlar bilan ishlashga alohida e'tibor qaratishimiz zarur. Bu vazifalarni amalga oshirishda biz asrlar mobaynida shakllangan milliy an'analarimizga, ajdodlarimizning boy merosiga tayanamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 30 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. 2. Azbarov Yu.T. Bolalarni savish san'ati.T.:O'qituvchi.1991. 138-b. 3. Azizxo'jayeva N.N. O'qituvchi tayyorlashning pedagogik texnologiyasi. -T.: TDP. 2000. 52.b. 4. Yagudayev B. Ya. Ajoyib sonlar olamida.- Toshkent: "O'qituvchi", 1979. 5. Umumta'lim maktablarining 1-4-sinflari uchun mo'ljallangan darslik. So'nggi nashri.